

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

*Toshkent viloyati Parkent tumani 34-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining Informatika va
axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi
Mag'ripova Moxinur Jaxongir qizi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ular o'quvchilarga va o'qituvchilarga zamonaviy texnologiyalar yordamida bilim olish va ta'lim berish imkoniyatlarini taqdim etadi. Elektron ta'lim resurslari, masalan, onlayn kurslar, videodarslar, interaktiv dasturlar va mobil ilovalar, ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay qilishga yordam beradi.

Annotation: E-learning resources have now become an integral part of the educational process. They provide opportunities for students and teachers to gain and educate knowledge using modern technology. E-learning resources, such as online courses, video courses, interactive applications and mobile applications, help to make the learning process more efficient and accessible.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiya, onlayn kurs, interaktiv, mobil ilovalar, onlayn platformalar.

Keywords: modern technology, online course, interactive, mobile applications, online platforms.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hamda axborotlashgan jamiyatga o'tish talablari ta'lim strategiyasini o'zgarishiga olib kelmoqda. Uzluksiz ta'lim olishning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari vujudga keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yangi ta'lim turlarining paydo bo'lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda, sobiq ta'lim tizimining yillar davomida shakllangan an'anaviy usul va vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligidadir. Bunday vaziyatda Oliy o'quv yurtlarining potensialiga tayangan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo'shilgan elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg'ulotlarini olib

borish talabalar tomonidan dars mashg'ulotlarini o'zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir.

Elektron ta'lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayonida talabalarning olayotgan bilimlarini nafaqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab yetishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar tomonidan turli elektron o'qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda talabalarning bilim saviyalarining oshib borayotganligiga bevosita ishonch hosil qilish mumkin, bu usullarning yanada takomillashtirilish, yuqori pog'onaga olib chiqish kabi zaruratlar oldindan ko'rib, shu yo'sinda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzab vazifasi bo'lishi talab etiladi.

Elektron ta'lim vositalaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

- o'quv materiallarga qo'yiladigan uslubiy talablarni ishlab chiqish;
- animatsion dasturlardan foydalanish davomiyligini 25–30 minutdan oshirmaslik;
- namoyish etilayotgan mavzuga doir tushunchalar o'qituvchi va talabalar tomonidan ikki tomonlama aloqa tarzida muhokama etib borilishi;
- namoyish etilib borilayotgan lavhalarining talaba tomonidan mustaqil ravishda qayta ishlab, yangi tushunchalarni shakllantirib borishiga erishish;
- o'qitish natijalarini baholash me'zonlarini aniqlash.

Ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'ta salmoqlidir. Elektron ta'lim texnologiyalarni o'rganish hamda o'rgatish ularni amalda qo'llash ta'lim tarbiya sifatini oshirish talabidan kelib chiqadi. Elektron ta'lim resurslarining mohiyati ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchi va talabalarning o'zlashtirishi hamda uning natijalari sur'atini tezlashtirishi, ijobiy natijalarga erishishi kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, elektron ta'lim resurslari bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat ta'lim olish jarayonini osonlashtiradi, balki bilim olishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu esa kelajak avlodlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Elektron resurslar vaqt va joyga bog'liq bo'lmagan ta'lim imkoniyatlarini yaratadi, bu esa o'quvchilarga o'zlarining individual ehtiyojlariga mos ravishda o'qish imkonini beradi. Bunday resurslar o'qituvchilarga darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qilishda yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarning bilimini baholash va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov M. Interaktiv elektron o'quv kurslar — o'qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. //”Xalq ta’limi” jurnali, 2013, 5-son.
2. Hamidov.Y.Y “Ta’lim samaradorligini oshirishda elektron ta’lim resurslarining o‘rni”. Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019.
3. Xo‘jjiyev.M.Y.(2020). Возможности повышения эффективности мультимедиа в процессе урока. Universum: психология и образование, (1), 10-13.